

REPRODUKTIV SALOMATLIKNI MUHOFAZA QILISH MASALALARI

O.R.Parpiyeva

Central Asian Medical University dotsent v.b.,

O.Ro'ziboyeva

Central Asian Medical University talabasi.

Farg'ona, O'zbekiston.

e.mail: parpieva.odinahon@yandex.ru,

ORCID: 0000-0001-6223-103X

Annotatsiya: *Ushbu maqolada reproduktiv salomatlikni muhofaza qilish va bepustlikni davolash to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Keyingi yillarda olib borilgan reproduktiv salomatlikni muhofaza qilish va bepustlikni davolash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarning milliy bazasi tahlili ularda aholi reproduktiv salomatligini samarali muhofaza qilish va bepustlikni sifatli davolashga to'sqinlik qiladigan tizimli kamchilik va nuqsonlar saqlanib qolayotganini ko'rsatdi.*

Kalit so'z va iboralar: *reproduktiv salomatlik, reproduktiv tizim, reproduktiv huquq, bepustlik, xavfsiz jinsiy hayot, yordamchi reproduktiv texnologiyalar.*

Аннотация: *В данной статье представлена подробная информация по охране репродуктивного здоровья и лечению бесплодия. Проведенный в последние годы анализ национальной базы нормативно-правовых документов в сфере охраны репродуктивного здоровья и лечения бесплодия показал, что в них все еще сохраняются системные недостатки и дефекты, препятствующие эффективной охране репродуктивного здоровья населения и качественному лечению бесплодия.*

Ключевые слова и фразы: *репродуктивное здоровье, репродуктивная система, репродуктивные права, бесплодие, безопасный секс, вспомогательные репродуктивные технологии.*

Abstract: *This article provides detailed information on reproductive health care and infertility treatment. An analysis of the national regulatory framework in the field of reproductive health and infertility treatment carried out in recent years has shown that they still contain systemic shortcomings and defects that impede the effective protection of reproductive health of the population and quality treatment. infertility.*

Key words and phrases: *reproductive health, reproductive system, reproductive rights, infertility, safe sex, assisted reproductive technologies.*

Reproduktiv salomatlik umumiy sog'liqning muhim qismi bo'lib, hayotning shaxsiy jihatlariga tegishli masala hisoblanadi. Reproductiv salomatlik insonning qoniqarli va xavfsiz jinsiy hayot olib borishi mumkinligi, farzandlarni dunyoga keltirish bilan bog'liq holatlarda va nechta farzand ko'rish borasidagi erkin tanlovini anglatadi. Bunda erkak va ayollarning axborot olish huquqlari va oilani o'z xohishlari bo'yicha rejalashtirishda xavfsiz, samarali, qulay va maqbul usullardan foydalanishi, shuningdek, ayollarning homiladorlik va tug'ish davrini xavfsiz o'tkazishda sog'liqni saqlash sohasidagi tegishli xizmatlarga bo'lgan huquqlari nazarda tutiladi.

Reproduktiv salomatlik – bu reproduktiv tizim va uning faoliyatiga bog'liq barcha

masalalar borasida faqat kasallik va kamchiliklar yo'qligi bo'libgina qolmay, balki to'liq jismoniy, aqliy va ijtimoiy muvaffaqiyatlar holati hamdir.

Ayni ushbu tushunchaga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021 yilning 7 mart kuni imzolangan "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida"gi qonunida ham ta'rif berilgan.

Reproduktiv salomatlik haqida qayg'urish mazkur sohadagi muammolarni bartaraf qilish yo'li bilan reproduktiv salomatlikka va osoyishtalikka erishishda yordam beruvchi usullar, vosita, texnologiya va xizmatlar yig'indisi sifatida tavsiflanadi.

Mazkur yo'nalish bilan kompleks ravishda fuqarolarning sog'lig'ini, onalik va bolalikni muhofaza qilish, har tomonlama barkamol yosh avlodni shakllantirish uchun barcha zarur sharoitlarni ta'minlashga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tibor qaratib kelinayotgani ham bejiz emas. Mamlakatimizda xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan reproduktiv salomatlik, onalar va bolalar salomatligi milliy modeli amaliyotga faol tatbiq qilinganligi e'tiborga molikdir.

Xalqaro ekspertlarning ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda reproduktiv yoshdagi juftliklar orasida bepushtlikning tarqalishi o'rtacha 13-15 foizni tashkil etadi. Bepushtlik er-xotinlarning ijtimoiy-ruhiy jihatdan bezovtaligiga, oiladagi ziddiyatli holatlarga, ajrimlar sonining o'sishiga olib keladi. Bepushtlikdan aziyat chekayotgan shaxslar ruhiy kechinmalarga beriluvchan bo'lib, ularning umumiy faolligi va mehnat layoqati sustlashadi.

Mamlakatimizda o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, oxirgi yillarda ajralishlarning 4,7 foizi juftliklar bepushtligiga to'g'ri kelmoqda. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, birlamchi bepushtlikka chalingan ayollar barcha turmush qurganlarning umumiy soniga nisbatan 4,9 foizdan 5,3 foizgachani tashkil etadi. Bu raqamlar O'zbekistonda oilalarni saqlash maqsadida yordamchi reproduktiv texnologiyalarni joriy etishning muhimligi va zarurligini yaqqol ko'rsatmoqda.

Keyingi yillarda olib borilgan reproduktiv salomatlikni muhofaza qilish va bepushtlikni davolash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarning milliy bazasi tahlili ularda aholi reproduktiv salomatligini samarali muhofaza qilish va bepushtlikni sifatli davolashga to'sqinlik qiladigan tizimli kamchilik va nuqsonlar saqlanib qolayotganini ko'rsatdi.

Masalan, qonun hujjatlarida yordamchi reproduktiv texnologiyalarni tatbiq etishning huquqiy asosi va mexanizmi mustahkamlanmagan. Texnologiyalardan foydalanishga ruxsat beriladigan tibbiyot muassasalari va tibbiyot xodimlarini akkreditatsiya qilish tizimi mavjud emas. Reproductiv salomatlikni muhofaza qilish va bepushtlikni davolashga tegishli malakali mutaxassislar hamda o'rta tibbiyot xodimlarini o'qitish va tayyorlash uchun huquqiy asoslar talab etiladi. Ushbu sohada mamlakatimiz amaliyotiga zamonaviy tibbiy texnologiyalarni joriy etish maqsadida tibbiyot muassasalarida moddiy-texnika bazasini shakllantirish, bir tomondan, bo'lg'usi shifokorlar va mutaxassislar bilan amaliyotga yo'naltirilgan o'qishni, boshqa tomondan, reproduktiv salomatlik va bepushtlikni davolashga muhtoj bo'lgan fuqarolarni sifatli davolashga imkon beradigan o'quv muassasalari va klinikalarni zamonaviy yuqori texnologik uskunalarni bilan jihozlash masalalarini qonunchilik yo'li bilan tartibga solishga ehtiyoj ortdi.

Ushbu holatlarning barchasi reproduktiv tUSDagi muammolarni bartaraf etish va

oilani mustahkamlashga qaratilgan, shuningdek, davolashning zamonaviy yuqori texnologiyali usullarini joriy etish uchun huquqiy asos yaratadigan maxsus qonunni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bugungi kunda dunyo miqyosidagi muammoga aylanib ulgurgan reproduktiv salomatlikni saqlash, bepustlik masalalarini bartaraf qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan o'tgan ikki yil mobaynida O'zbekistonda xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan reproduktiv salomatlik hamda onalar va bolalar salomatligi milliy modeli shakllantirilib, amalga oshirildi.

Jumladan, Prezidentimizning 2018 yil 7 dekabrda "O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan 2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish Kontseptsiyasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlanib, unga asosan "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni loyihasini ishlab chiqish va Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritish nazarda tutilgan edi.

Ushbu dastur ijrosi doirasida Oliy Majlis Qonunchilik palatasining bir guruh deputatlari tomonidan "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi ishlab chiqildi. E'tiborlisi, ushbu qonun loyihasi ijodkorlarining barchasi ayol deputatlarimizdir.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi hamda O'zbekiston "Adolat" sotsial demokratik partiyasi o'rtasida hamkorlik Memorandumi doirasida hozirgi zamon talablari hamda aholining ehtiyojlaridan kelib chiqib, "Odam a'zolari va to'qimalarini transplantatsiya qilish to'g'risida"gi, "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunlar loyihalarini ishlab chiqish va aholi orasida muhokama qilish hamda qabul qilinishiga erishish belgilangan edi.

Shu bois o'tgan davr mobaynida "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokamasiga bag'ishlangan 40 dan ortiq uchrashuvlar va davra suhbatlari o'tkazildi. Ushbu tadbirlarda mazkur qonunning bugungi kunda juda zarurligi qayd etilgan 100 dan ortiq taklif va tavsiyalar bildirildi va qonun loyihasi takomillashishiga yetkazildi. Shu bilan birga, quyi palata tomonidan qonun loyihasini qabul qilishda norma ijodkorligi talablaridan kelib chiqib, uni to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan qonunga aylantirishga alohida ahamiyat berildi.

Birinchiidan, qonunda uning maqsadi va asosiy printsiplari, fuqarolarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari aniq belgilangan.

Ikkinchiidan, "fuqarolarning reproduktiv salomatligi", "fuqarolarning reproduktiv huquqlari", "yordamchi reproduktiv texnologiyalar" kabi asosiy tushunchalar ochib berilgan.

Uchinchiidan, fuqarolarning reproduktiv tanlov erkinligiga doir huquqi, shuningdek, fuqarolarning reproduktiv huquqlarini ro'yobga chiqaruvchi tashkilotlar va yuridik shaxslarning faoliyatini amalga oshirishga doir huquqlari mustahkamlangan.

To'rtinchiidan, aholining reproduktiv salomatligini muhofaza qilish, bepustlikni davolash, uning profilaktikasi va erta oldini olish bo'yicha tibbiy xizmat ko'rsatayotgan

davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari tizimi mustahkamlangan bo‘lib, ularning vakolatlari, majburiyatlari va faoliyat ko‘rsatish shart-sharoitlari belgilangan, shuningdek, mazkur organlar va tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatiga qo‘yiladigan talablar sanab o‘tilgan.

Beshinchidan, fuqarolarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish, bepushtlikning oldini olish va profilaktika qilishga doir ishlar ustidan davlat va jamoatchilik nazorati mexanizmlari belgilangan.

2019 yil 11 mart kuni “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida”gi O‘RQ-528-sonli O‘zbekiston Respublikasining Qonuni prezident tomonidan imzolandi.

Mazkur qonunning maqsadi, fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlashni tartibga solishdan iborat. Qonunga muvofiq, fuqarolar kontratsepsiya usullarini tanlash, ulardan foydalanish, shuningdek ularni rad etish huquqiga ega. Fuqarolarga sog‘lig‘ining holati, yoshi va individual xususiyatlari hisobga olingan hamda nomaqbul oqibatlar haqida ogohlantirgan holda kontratsepsiya usullarini yakka tartibda tanlash bo‘yicha tibbiy yordam ko‘rsatiladi.

Kontratsepsiyaning jarrohlik usuli voyaga yetganlarning yoki er-xotinning yoxud muomalaga layoqatsizlar vasiylarining roziligi bilan amalga oshiriladi.

Qonunga ko‘ra, homiladorlikni sun‘iy tushirish quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

- homiladorlikning o‘n ikki haftasigacha ayolning xohishiga ko‘ra;
- homiladorning hayotiga xavf soluvchi tibbiy ko‘rsatmalar bo‘lganida homiladorlikning istalgan muddatida.

Qonunga ko‘ra yordamchi reproduktiv texnologiyalar qo‘llanilishi haqidagi, shuningdek ularning ishtirokchilari haqidagi ma‘lumotlar shifokorlik siri sifatida qo‘riqlanadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy mamlakatlarda reproduktiv salomatlik va bepushtlik masalalari qonunchilik darajasida maxsus qonun qabul qilish yo‘li bilan hamda qonunlarga ayrim normalar va qoidalarni kiritish orqali tartibga solinadi.

Amaliyotga kelsak, barcha mamlakatlarda yordamchi reproduktiv texnologiya (YORT) davlat tibbiyot muassasalarida ham, xususiy klinikalarda ham qo‘llaniladi. Bunda YORT bepushtlikni davolashning eng qimmat usullaridan biri hisoblanadi. Reproductiv texnologiyalarga bo‘lgan umumiy ehtiyoj ikki tarkibiy qism: tibbiy va ijtimoiy tashkil etuvchilar bilan belgilanadi. Aholi salomatligining holati va reproduktiv funktsiyani korrektsiyalash zaruriyati tibbiy tashkil etuvchilardan bo‘lsa, ijtimoiy tashkil etuvchilar esa – inson reproduksiyasi vositasi sifatida yordamchi reproduktiv texnologiyalarni qo‘llashdagi printsiplial imkoniyatlarda namoyon bo‘ladi.

Yordamchi reproduksiya muolajalarining qulayligi ko‘p hollarda nafaqat ularning qonuniyligi, balki davolanish uchun to‘lash zarur bo‘lgan pul miqdori va tug‘ish yoshidagi o‘rtacha juftliklarning to‘lov qobiliyati bilan belgilanadi. Reproductiv qonunchiligi rivojlangan ko‘pgina davlatlar EKO, ya'ni sun'iy ekstrakorporal urug‘lantirish bilan bog‘liq barcha xarajatlarning 30-50 foizini qoplaydigan maxsus davlat dasturlarini taklif etadi. Belgiya, Gretsiya, Isroil, Sloveniya, Frantsiya va Shvetsiyada esa bu xarajatlar to‘laligicha davlat tomonidan qoplanadi. Qoida tariqasida xarajatlarning to‘laligicha

qoplanishi muayyan mezonlarga tayangan holda amalga oshiriladi.

Isroil davlati tomonidan bunday texnologiyalardan foydalanishni moliyaviy jihatdan qoplash bo'yicha o'ziga xos yondashuv taklif qilingan. Bunda juftliklarda ikki farzand bo'lguniga qadar bir qancha muolajalar bepul o'tkazilishi belgilangan. Rossiya, Qozog'iston, Belarus va shuningdek, MDHga a'zo boshqa davlatlarda me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadigan yordamchi reproduktiv texnologiyalar muolajalarini o'tkazish kvotalari mavjud. EKO muolajalarining narxi turli mamlakatlarda tashxis, protokol muddatining davomiyligi va qo'shimcha manipulyatsiyalarga bog'liq holda 1500 yevrodan 2500 yevrogacha miqdorda belgilangan. Muolajalarning samaradorligi turli mamlakatlarda 28 foizdan 50 foizgachani tashkil etadi.

Qonunni ishlab chiqishda xorijiy tajribaning yuqorida sanab o'tilgan eng muhim jihatlari xalqimizning milliy mentaliteti va diniy e'tiqodini inobatga olgan holda tatbiq etildi.

Darhaqiqat, "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida"gi qonun, eng avvalo, fuqarolarning reproduktiv huquqlarini ta'minlashga, bepushtlikni davolashda ularning imkoniyatlarini kuchaytirishga, ota-ona bo'lishiga, oilada baxt va farovonlikka erishishiga xizmat qiladi. Bu orqali mamlakatimizning barqaror rivojlanishida muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan oila mustahkamligi ta'minlanadi. Shu bilan birga, fuqarolarga yuqori texnologiyalarga asoslangan sifatli va yuqori malakali tibbiy xizmat olish imkoniyatini beradi.

Yangi qonunning yana bir muhim jihati, tibbiyot muassasalarining raqobatbardoshligi oshirilishini ta'minlaydi va bu, o'z navbatida, bir tomondan, fuqarolarga eng yangi texnologiyalar asosida yuqori malakali tibbiy yordam olish uchun sharoitlar yaratishga yo'l ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдукаримова, Н.У., Муйдинова, Ё.Г., Парпиева, О.У., & Мухамедиева, И. Б. (2015). ОЦЕНКА РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ ЖЕНЩИН ГОРОДСКОЙ И СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ. In Актуальные проблемы медицины в России и за рубежом (pp. 102-104).

2. Parpieva, O. R., & Djalalidinova, O. O. (2022). Reproductive Health Issues. Texas Journal of Medical Science, 14, 58-61.

3. Muydinova, Y. G., & Parpiyeva, O. R. (2021). Reproductiv salomatlik. O'quv qo'llanma. Fergana, Uzbekistan.

4. Muydinova, Y. G., & Parpiyeva, O. R. (2021). Reproductive health.

5. Парпиева, О. Р., Эрматова, Г. А., Камалова, Д. А., & Якубов, А. (2024). КОРРЕЛЯЦИОННАЯ СВЯЗЬ МЕЖДУ ПИТАНИЕМ И СОСТОЯНИЕМ ЗДОРОВЬЯ ЖЕНЩИН РЕПРОДУКТИВНОГО ВОЗРАСТА. JOURNAL OF MEDICINE AND PHARMACY, 7(6), 4-10.

6. Абдукаримова, Н., Парпиева, О., & Муйдинова, Ё. (2020). Пандемия шароитидаги хомиладор аёллар ва чақалоқларга тиббиёт тавсияларининг аҳамияти. ACADEMIA SCIENCE™ "UZACADEMIA" scientific-methodical journal. ISSN (E)-2181-1334, 31, 370-377.

7. Normatova, S. A., & Parpiyeva, O. R. (2024). ASSESSMENT OF THE ROLE OF RISK FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF BREAST CANCER. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 2(21), 74-78.
8. Rakhmanovna, P. O. (2022). Nutrition and diet in breast cancer. Texas Journal of Medical Science, 7, 27-30.
9. Parpieva, O. R., Muydinova, E., & Safarova, G. (2021). Breast cancer. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(11), 482-485.
10. Парпиева, О. Р. (2023). КЎКРАК БЕЗИ САРАТОНИ ҲАҚИДА ТУШУНЧА. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(3), 446-454.
11. Parpiyeva, O. (2023). “KO‘KRAK BEZI SARATONI BILAN KASALLANGAN AYOLLAR OVQATLANISHINI KORREKTSIYALASHNI ILMIY ASOSLASH” MAVZUSI BO ‘YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 3(12), 168-177.
12. Parpiyeva, O. R. (2023). HEALTH IS THE HIGHEST VALUE. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(11), 760-763.
13. Parpiyeva, O. R., & Dzhaldinova, O. O. (2022). The role of Valeology in raising a healthy generation. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 13, 1-3.
14. Эрматова, Г. А. (2014). Фактическое питание и его влияние на здоровье женщин фертильного возраста. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (4-2), 225-227.